

**NAZAR ESHONQULNING “OQ ALANGA” HIKOYASIDA SYUJET VA MOTIV****Orazbaeva Asal****Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti****Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili****Ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.11467224>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Nazar Eshonqul qalamiga mansub “Oq alanga” hikoyasi talqin qilinadi. Unda insonning hislari, qobiliyati, insoniylik tuyg‘ulari va vijdoni oldidagi vazifalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** syujet, kompozitsiya, retrospektiv, rakurs, motiv.

O‘zbek adabiyotiga o‘zgacha nafas olib kirgan yozuvchi Nazar Eshonqul ijodi bilan tanish bo‘lmagan kitobxon oramizda deyarli uchramasa kerak. Yozuvchi ijodidagi o‘ziga xoslik boshqa o‘zbek yozuvchilarida uchramaydi. Aksariyat hollarda asarlariga qo‘yilgan nom ham milliy, ham noan‘anaviyligi bilan e‘tiborni tortadi. Hikoyalaridagi o‘ziga xoslik, ichki tuzilish, voqealar rivoji, yechim – barchasi yangicha usulda yakunlanadi.

Nazar Eshonqul qalamiga mansub aksariyat asarlar syujetiga nazar tashlaydiagan bo‘lsak, unda bevosita o‘quvchini o‘z oqimiga olib ketadigan voqealarni uchratishimiz mumkin. Syujet epik – dramatik va voqeaband she‘riy asarlardagi makon va zamonda kechuvchi voqealar oqimi sifatida tavsiflanadi.[1]

Nazar Eshonqul asarlarining o‘quvchi ongida mustahkam joy egallashiga yana bir sabab syujet birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Bu esa bevosita o‘quvchining qahramon sifatida o‘zini ko‘ra olishiga yo‘l ochadi.

Muhabbat mavzusidagi asarlarda ilk syujetning qaysidir xususiyatlari badiiy matn to‘qimasida nihon bo‘ladi. Nazar Eshonqulning “Oq alanga” hikoyasida ayriliq motivi ustuvorlik qiladi. Oshiq obrazi hijron dardida ruhiy kechinmalarini o‘z tilida bayon etadi. Bu qahramonning dard – alamlari va o‘y – xayollarini boricha aks ettirishda katta yordam beradi. Qahramonning his – tuyg‘usi tabiat bilan uyg‘unlashib, ramziy ma‘no kasb etadi.

Hikoyada roviy voqealarni retrospektiv usulda bayon qiladi. Oshiq qalbidagi iztiroblarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri emas, balki xat vositasida tasvirlaydi. “... Sen meni, balki esingdan chiqargandirsan, - deb xat yozardi yigit bir paytlar o‘zi ko‘ngil qo‘ygan qiziga, - men xotirangdan, balki butkul o‘chib ketgandirman. Lekin mening yodimda hamon o‘sha qiyofada - ko‘kish gulli oq ko‘ylakda lovullab yonib turasan. Sen xuddi hilpirab turgan oq alangaga o‘xshaysan. ...Alanga hamon mening sovuq xonamni chog‘day isistib turibdi. [2]

Hikoya roviy tilidan ifoda etiladi. Hajmi qisqa bo‘lishiga qaramay, yozuvchi o‘z maqsadini to‘liq ifodalay olgan. Sodda kompozitsion tuzilishga ega bo‘lgan bu hikoyada sevgan qiziga yetisholmagan oshiq yigitning hijronlari, dardlari, alamlari ifodalangan. Hikoya qahramoni sevgilisiga yuborilmaydigan maktublar yozaveradi – yozaveradi va butun xonani oq gulzorga aylantirib yuboradi. Deraza to‘lgach, gullarni kursiga, kitob javoniga, yerga, keyin esa divanga terib qo‘ya boshlaydi. Shu tariqa xonada nogahon barcha gullari chaman bo‘lib ochilgan gulzor paydo bo‘ladi.

Hikoyada xona ham badiiy makon vazifasini bajaradi. Oshiqning alangadek muhabbatiga faqatgina shu xona guvoh. Oq alangaga aylangan xona yozuvchining badiiy topilmasi. Bu topilma

mohiyatida muhabbat deya atalmish eng oliy tuyg'u jilva qiladi.[3] Yana hikoyada xona nega aynan oq gullardan iborat gulzorga aylangan? Oq rang bir tomondan poklik ramzi bo'lsa, bir tomondan ba'zi xalqlarda motam kiyimi rangi hisoblanadi. Musulmonchilikda ham kafan oq rangda bo'ladi. Endi xonaning oqligiga keladigan bo'lsak, bu oshiq yigitning sevgisi tugab sarobga, orzulari esa armonga aylanganligi uchun sevgisiga guvoh bo'lgan xonani kafanlagandek tuyuladi. Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqul hikoyalari inson ongida yangicha qarashni shakllantiradi. Dunyoga boshqa rakursdan qarashga o'rgatadi. Ayni paytda yozuvchining har bir asari, u qo'llagan timsollar va obrazlardan kelib chiqqan holda uning mahoratli ekanligini yana bir bora sezamiz.

### References:

1. D.Quronov "Adabiyot nazariyasi asoslari" Toshkent 2018 Akademnashr
2. N.Eshonqul "Oq alanga" hikoya 2015
3. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti mavzusidagi V an'anaviy, ilmiy – amaliy anjumani materiallari Toshkent 2021